

## TIQXMMI Buxoro filiali talabalari “Jayron” pitomnigida

TIQXMMI Buxoro filiali “Gidrologiya va Ekologiya” kafedrası o'qituvchisi Qobulova Barno boshchiligida “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish” yo'nalishi 2-bosqich talabalari bilan birgalikda Qorovulbozor tumanida joylashgan Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigida bo'lishdi. B. Qobulova “Jayron” pitomnigida mavjud shart-sharoitlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tdi. Ma'lumot o'rnida, Pitomnik A-380 avtomagistralida joylashgan. Umumiy maydoni 16 522 ga bo'lib, unda jayron, turkman quloni, Buxoro tog' qo'yi va bug'usi kabi noyob hayvonlar ko'paytiriladi.



Shuningdek, pitomnikning Himoyalangan hudud maydoni – 5 145 ga'ni, Ochiq hududi esa 11 377 ga'ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda kelgusida viloyatda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida, Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigida sayyohlar uchun maxsus 20 o'rinli “Tashrif markazi” binosining qurilishi rejalashtirilgan. Ma'lumot o'rnida, Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi hududida yashaydigan umurtqali hayvonlarning 50 ga yaqin turi va umurtqasiz hayvonlarning 6 turi O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” va Xalqaro “Qizil ro'yxatga kiritilgan.

**TIQXMMI Buxoro filiali Matbuot xizmati**